



**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK
TARBIYACHILARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA
TAYYORLASHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYASI**

Ergasheva Ba'rno Ziyavitdin qizi
Nizomiy nomidagi TDPU, o'qituvchi
Tel: +99893 189 05 75
barnoergasheva90@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda mamlakatning rivojlanish darajasi, pedagogika o'quv tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlar, pedagog kadrlarning salohiyati haqida tushuntirishlar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, o'rganish, intellektual, strategiya, tizim, ekspert, kontekst.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'plab isloxitlarda xam demokratik tamoyillar asosidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oliy ta'lim tizimida talabalarning mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini yanada takomillashtirish zarurati ta'kidlab o'tilgan. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish xar bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim kontekstida ko'p bosqichli uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan samarali innovasion modellarni yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kasb ta'limi pedagoglari faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni bo'lajak kasbiy faoliyatida izchil qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishini talab etadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kasb ta'limi tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriyat tug'diradi. Hozirgi vaqtda oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlari joriy etilib, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim mazmuni va texnologiyasida innovasiyalar keng joriy etilmoqda.



Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida juda katta e'tibor qaratilmoqda. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda. Har bir ota-onas o'z farzandining bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo'lida ta'lim-tarbiya olishini xoxlaydi. Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi zimmasiga tushadi. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etar ekan u zamon bilan hamnafas holatda ta'lim tarbiya jarayonida ,markazlar faoliyatida yangi innovasiyalardan foydalanishi lozim.Tarbiyachi faoliyati davomida uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya ishlari mazmuni, uslublari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilib oladilar.

Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqr o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan tarbiyachi butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq farzand qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachipedagog bo'la oladi.Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim vatushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik,adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hay vonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrabavaylash kabi axloqiy sifatlar tarbiyalaydi. Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar



bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan bo'lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xattiharakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniylay baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;

9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi;

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak Eng muhimi -tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyat -pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyat va pedagogik



muomala kiradi. Pedagogik qobiyyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat -bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

Kasbiy moslashtirish – mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog'liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo'lib, talabalar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan ishlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, shaxs manfaatlari, shaxs, davlat va jamiyat, fan, ishlab chiqarish komponentlarini o'z tarkibiga olgan kadrlar tayyorlash milliy modeliga asosan bo'lajak pedagog yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, uning mazmunini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish va tabaqlashtirish bo'lajak o'qituvchini kasbiy- ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.
2. Barno, E. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.
3. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 118–122.
4. Ergasheva Ba'rno Ziyaviddin qizi, & Qulbulova Rayhona Anvar qizi. (2023). MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(4), 69–74.
5. MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI MD Akmalovna, BR Sadriddinovna, BEZ Qizi.Science and innovation 2 (Special Issue 13), 538-540.
6. Ergasheva Ba'rno Ziyaviddin qizi, & Islomova Sabina Jamshidxon qizi. (2023). ZAMONAVIY TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENLIGI . Лучшие интеллектуальные исследования, 10(5), 60–62.



7.Ergasheva Barno Ziyavitudin qizi. (2022). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 5(5), 75–77.

8.Xasanova, S. (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК ФАКТОР ГОТОВНОСТИ РЕБЕНКА К ШКОЛЕ. Science and innovation, 1(B8), 2199-2203.

9.Khasanova, S. (2021). THE ROLE OF HISTORICAL ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE FORMATION OF NATIONAL PRIDE BY PRESCHOOL ADULT CHILDREN. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 103-107).

10.Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 734-738.

11.Sh.T.Xasanova. Tarixiy obidalar bolalarda milliy g'ururni shakllantirish vositasi sifatida. «Yosh olimlar axborotnomasi» – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists». №4(1) 2023.ISSN 2181-5186.

12.Хасанова, Ш. Т. (2012). Формирование элементов национальной гордости у детей старшего дошкольного возраста посредством архитектурных памятников. Педагогические науки, (1), 70-73.